XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko'chasi 55-uy, tel: (65) 33-22-131

2021 - yil 30 - dekabr VI-53-138-2-33-K/21 Vobkent tuman hokimligi

Vobkent tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari Vobkent tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Vobkent tumani mahalliy budjetining 2022 yil uchun daromadlari **62,1 mlrd.so‘m**, xarajatlari **136,9 mlrd.so‘m** prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **74,8 mlrd.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022 yil uchun Vobkent tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi hamda 2023-2024 yillarga maqsadli mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2022 yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2022 yil uchun Vobkent tumani budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yil uchun Vobkent tumani budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman mahalliy budjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022 yil uchun Vobkent tumani mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022 yil uchun Vobkent tumani mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun Vobkent tumani mahalliy budjeti zahira jamg‘armasi hajmlari 1,279 mlrd.so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman mahalliy budjetining 2022 yil uchun zahira jamg‘armasi tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

9. 2022 yil uchun Vobkent tumani budjeti shaxsiy g‘azna hisob-varaqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1,039 mlrd.so‘mni hamda tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisob-varaqlarida turgan budjet mablag‘lariining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

Mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) tumanning mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining

Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

xususiylashtirishdan tushgan tushumlar va boshqa soliqlar;

v) tuman budjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Malikov, tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Barotov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (O.Muqumov) hamda tuman hokimligi va tuman davlat tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjet mablag‘larini birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muqumov) va tegishli davlat tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

er solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini

ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi tuman filiali (B.Mirzayev) bilan birgalikda 2022 yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

13. Majburiy ijro byurosi Vobkent tumani bo‘limi (D.Ergashov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muqumov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rib borishni ta’minlasin.

14. Vobkent tumani hokimining o‘rinbosari-Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi (B.Yusupov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muqumov)ga Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi hamda bo‘sh turgan ob’ektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

tumanda bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra tumanda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini

ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auction» mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muqumov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Barotov), Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2022 yilning 1 iyuliga qadar 2021 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2022 yilning 1 sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkazilishini ta’minlasin.

16. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Malikov, tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Barotov)ga Monopoliyaga qarshi ko‘rashish qo‘mitasi Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartib asosida shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

17. Tuman irrigatsiya bo‘limi (Sh.Jo‘rayev), tuman suv iste’molchilar uyushmasi (I.Safarov), tuman davlat soliq inspeksiyasi (O.Muqumov) va tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Sh.Islomov bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

18. Majburiy ijro byurosi Vobkent tumani bo‘limi (D.Ergashov), tuman

yo‘l harakati xavfsizligi guruhi (S.Boltayev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

19. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (A.Barotov) tegishli davlat korxonalari bilan birgalikda:

tuman xalq ta’limi bo‘limi, tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi va tuman tibbiyot birlashmasi hamda budjet mablag‘larini oluvchi idoralarini budjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

budjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengasha axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

20. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatish natijalari bo‘yicha tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish topshirilsin.

21. Tuman hokimligiga:

Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirishni;

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda yangi joriy

etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tuman hokimligining tegishli rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

22. Tuman hokimining moliyaiqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish bo‘limi boshlig‘i Malikov, tegishli davlat tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

23. Mazkur qaror “Vobkent hayoti” tuman gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

24. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

25. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-138-2-33-K/21-сон қарорига
1-илова

Vobkent tumanning 2022 yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2023-2024 yilga maqsadli mo‘ljallari

№	Ko‘rsatkichlar	2022 yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2023 yil	2024 yil
1.	Ist’emol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	111,8	111,6	111,4
2.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	110,8	111,2	112,5
3.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	103,1	103,5	103,7
4.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	106,5	110,7	111,4

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-138-2-33-K/21-сон қарорига
2-илова

Vobkent tumanini mahalliy budjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	3 336 000
2	Aylanmadan olinadigan soliq	7 271 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	6 436 200
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Aksiz solig‘i, jami	22 924 962
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	22 924 962
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 186 000
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 363 000
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 403 000
12	Davlat boji	
13	Jarimalar	
14	Ijara to‘lovi	97 000
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
16	Yig‘imlar	3 120 000
17	Xususiylashtirish	
18	Boshqalar	
JAMI		**62 137 162**
19	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	74 732 454
HAMMASI		**136 869 616**

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-138-2-33-K/21-сон қарорига
3-илова

2022 yil uchun Vobkent tuman budjetidan mahalliy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**136 869 616,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	136 869 616,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	0,0
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	0,0
1.	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**10 578 841,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 578 841,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2.	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**8 538 022,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 538 022,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	**Sog‘liqni saqlash bo‘limi**	**50 775 552,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	50 775 552,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Madaniyat boshqarmasi**	**2 126 652,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 126 652,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Turizm va sport bo‘limi**	**3 819 717,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 819 717,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 360 735,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 360 735,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**1 384 631,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 384 631,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	**Tuman hokimligi**	**8 409 656,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 409 656,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9.	**Boshqa xarajatlar**	**49 875 810,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	49 875 810,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Халқ депутатлари Вобкент туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-138-2-33-K/21-сон қарорига
4-илова

Umumdavlat soliqlaridan Vobkent tumani mahalliy budjetlariga 2022 yildagi ajratmalari me’yorlari

foiz hisobida

T/R	Tuman nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i*	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i
1.	Vobkent tumani	0	100	20	100	0	0	100	0	100

T/R	Tuman nomi	Yer qa’ridan foydalangan-lik uchun soliq (noruda materiallari)	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan ajratma**	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Xususiylashtirish	Boshqalar***
1.	Vobkent tumani	100	100	0	0	100	0	100	0	0

Izoh: Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha 3111104, 3111106, 3111300, 3111600, 3111800 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq tuman va shaharlar mahalliy budjetlariga yo‘naltiriladi.*

*** Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan davlat budjetiga ajratmalar bo‘yicha 3412110, 3412112 daromad kodlariga tushadigan mablag‘lar to‘liq viloyat budjeti daromadlariga yo‘naltiriladi.*

**** Hukumat qarorlari bilan belgilangan normativlarga asosan taqsimlanadi.*

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-138-2-33-K/21-сон қарорига
5-илова

2022 yil uchun Vobkent tumani mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi

ming so‘mda

Budjetlar nomi	**Daromad ***	**Xarajat**
Vobkent tumani	62 137 162,0	136 869 616,0

** mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-138-2-33-K/21-сон қарорига
6-илова

Vobkent tumani mahalliy budjetining 2022 yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Tuman nomi	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
Vobkent tumani	74 732 454,0

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-53-138-2-33-K/21-сон қарорига
7-илова

Vobkent tumani mahalliy budjetida 2022 yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Miqdor
1.	Vobkent tumani	1 039 000,0